BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAJABOV BEHRUZ BAXSHILLOYEVICH

IJTIMOIY TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA TINCHLIK VA HAMKORLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-RETROSPEKTIV TAHLILI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101:114:316.422

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Rajabov Behruz Baxshilloyevich
Ijtimoiy transformatsiyalar jarayonida tinchlik va hamkorlikni ta’minlashning falsafiy-retrospektiv tahlili.....5

Раджабов Бехруз Бахшиллоевич
Философско-ретроспективный анализ обеспечения мира и сотрудничества в процессе социальных преобразований 23

Rajabov Behruz Baxshilloyevich
A philosophical-retrospective analysis of ensuring peace and cooperation in the process of social transformations.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAJABOV BEHRUZ BAXSHILLOYEVICH

IJTIMOIY TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA TINCHLIK VA HAMKORLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-RETROSPEKTIV TAHLILI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fal1611 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Turdiyev Bexruz Sobirovich** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Choriyev Sanjarbek Anvarovich** falsafa fanlari doktori, professor
	Xajiyeva Maqsuda Sultanovna falsafa fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "28" oktabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1039- raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "10" oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil "10" oktabr dagi 30 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida jamiyat taraqqiyoti murakkab siyosiy, iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlarga yuz tutib, bir tomondan davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, integratsiya va hamkorlik imkoniyatlarini kengayayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ziddiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, geosiyosiy qarama-qarshiliklar kabi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda tinch-totuvlikni ta’minlash, adolat, xavfsiz muhit, konstruktiv muloqot va ijtimoiy hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan paradigmal o‘zgarishlar davrida tinchlik va hamkorlikning zamonaviy mazmuni hamda ularni ta’minlash mexanizmlarini aniqlashtirish, inson qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini himoyalash, xalqaro tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni saqlash uchun kuchlarni birlashtirish, xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordam berish, kishilik jamiyatini barqaror rivojlantirish prinsiplarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida tinchlikni mustahkam qaror toptirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni dunyo miqyosida qo‘llab-quvvatlash orqali uni umummintaqaviy jarayonlarga integratsiya qilish mumkinligiga oid fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tinch, adolatli, ochiq va inkluziv jamiyatlarga ega, qo‘rquv va zo‘ravonlikdan xoli, tinchlik va xavfsizlik ta’minlangan, insoniyat kelajagi, taqdiri uchun umumiy javobgarlikni his qilgan holda global va mintaqaviy xalqaro samarali sheriklik yo‘lga qo‘yilgan va xalqlarning farovonlik darajasi tobora yuksalib borishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, tinchlik va hamkorlik kategoriyalarining falsafiy mohiyatini, ularning o‘zaro dialektik aloqasini, tinchliksevar tashqi siyosat olib borishdagi metodologik asoslarini, mintaqaviy integratsion jarayonlarni, qo‘shnilar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kuchaytirish borasidagi qarashlarni falsafiy mezonlar asosida tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

O‘zbekistonda tinchlik va hamkorlikni ta’minlashga qaratilgan islohotlar mamlakatimizning jahon hamjamiyati, xususan, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini “davlatlarning hududiy yaxlitligi” va “tinchliksevar tashqi siyosat” tamoyillariga muvofiq rivojlantirish, shuningdek, bu boradagi konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq etish va ularning mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. “Biz davlat va xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ochiq, pragmatik, konstruktiv ruhdagi tinchliksevar tashqi siyosatimizni faol davom ettirish bilan bir qatorda, O‘zbekistonning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlashga doimo ustuvor ahamiyat qaratamiz”[1]. Shu bois davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, chuqur ma’muriy islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, samarali tashqi siyosat yuritish, mamlakatimizda millatlararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash va boshqa qator yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. –B.100.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2025-yil 19-martdagi PF-52-son “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son “2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 13-dekabrdagi PQ-4551-son “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta’minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda tinchlikka erishish, xavfsizlikni ta’minlash va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mavzulari doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat suvereniteti, fuqarolar, millatlar va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, erkin va ozod hayotni ta’minlash, samarali tashqi siyosatni amalga oshirish masalalari insoniyatni qadimdan qiziqtirib keladi. Platon, Aristotel, Sitseron, Seneka, Avgustin, R.Erazm, N.Makiavelli, G.Grotsiy, J.J.Russo, T.Gobbs va I.Kant kabi faylasuflar muammoning ayrim, ilmiy metodologik ahamiyatga ega masalalarini o‘rganishgan. Yevropa falsafasida tinchlik falsafasi, turli yondashuvlar orqali tinchlik, zo‘ravonliksiz qarshilik va barqaror kelajakni qurish konsepsiyasi Urben Olivyer, Kezer Robert Allen, Bennet Julyet, Zaver Joni, Choy Jong Kun, de Koning Sedrik Hatting, Ediveyn Valda, Xu Syao-Lan, Krampe Florian, Barbara Magalyaes Teysheyra kabi tadqiqotchilar dissertatsiyalarida ishlab chiqilgan. J.Galtung tinchlikning “salbiy” va “ijobiy” tinchlik shakllari orqali farqlab, ijtimoiy adolat va strukturaviy zo‘ravonlikni bartaraf etish masalalari tinchlikning muhim mezonlari sifatida asoslagan. J.Rouls, J.Habermas, A.Honnet, A.Sen, R.Putnam kabi olimlarning qarashlari muhim metodologik ahamiyat kasb etadi[2].

[2] Plato: Laws, Books I and II. –UK: Oxford University Press, 2012. –361 p.; Арасту. Ахлоқи кабир. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2018. –352 б.; Цицерон. Об обязанностях // Цицерон. О старости. О дружбе. Об обязанностях. –Москва: «Наука», 1993. –284 с.; Сенека. Нравственные письма к Луцилию. –

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlari pasifizmning falsafiy mohiyati, uning shakllanishi, tinchlikning madaniy fenomen sifatidagi talqini, tinchlik konsepsiyasi va hamkorlikning falsafiy asoslari, siyosiy va ijtimoiy mohiyati, siyosat va urush o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalarini o‘rganishgan. Bu borada A.A.Lisitsina, A.V.Dokuchayev, V.A.Ni, L.E.Sutyagina, S.V.Reznik, Ye.V.Martinenko, V.V.Ksenofontov kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin[3].

O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarayonida tinchlik va barqarorlikning hal qiluvchi ahamiyati, barqarorlikni ta’minlash uchun siyosiy islohotlar, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi va davlatning izchil siyosati zarurligi, demokratik islohotlar o‘tkazish juda zarur. Bu o‘rinda U.X.Bo‘tayev, A.Z.Sharipov, A.G.Abdushukurov, O.O.Sirojov, T.B.Matibayev, M.Sh.Sharipov, M.S. Xajiyeva, N.O.Safarova, S.A.Choriyev, B.S.Turdiyev kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini eslash mumkin[4]. Ushbu tadqiqotlarning umumiy metodologik

---

Москва: «Наука», 1977. –С. 136.; Августин. О Граде Божием // Антология мировой мысли в пяти томах. Европа V-XVII. –Москва: «Мысль», 1999. - 1296 с.; Эразм Роттердамский. Жалоба мира // Трактаты о вечном мире. –Москва: «Соцэкгиз», 1963. – 277 с.; Макиавелли Никколо. Ҳукмдор. –Тошкент: “Davrpress”, 2019. – 144 б.; Гуго Гроций. О праве войны и мира. –Москва: «Ладомир», 1994. –868 с.; Руссо Ж.Ж. Суждение о вечном мире // Трактаты о вечном мире. –Москва: «Соцэкгиз», 1963. –278 с.; Гоббс Т. Левиафан //Гоббс Т. Избранные произведения в 2-х тт. –Москва: «Мысль», 1991. –731с.; Кант И. К вечному миру. –Москва: «Рипол Классик», 2019. –434 с.; Urbain Olivier. Daisaku Ikeda’s philosophy of peace: human revolution, dialogue and global civilization. PhD Thesis, University of Bradford, 2009.; Kezer Robert Allen. Integral nonviolent conflict. Reframing the idea of civil resistance against violent oppression. PhD Thesis, California Institute of Integral Studies, 2014.; Bennett, Juliet. Process Thinking and its application for a sustainable future. PhD Thesis, University of Sydney, 2020.; Xavier, Johney. The Philosophy of Peace and Development of the Holy See in the United Nations. Doctoral thesis, Universitat Jaume I, 2022.; Choi Jong Kun. A region of their making visions of regional orders and paths to peace making in northeast Asia. Columbus, Ohio: Ohio State University, 2006.; De, Coning Cedric Hattingh. Complexity, peacebuilding and coherence: implications of complexity for the peacebuilding coherence dilemma. Thesis, Stellenbosch: Stellenbosch University, 2012.; EdyvaneValda. Liberty, peace, and friendliness: the political ideas of Auberon Herbert. Thesis, University of Auckland, 2006.; Hu Hsiao-Lan. Participatory peacemaking: socio-ethical implications of interdependent co-arising and their relevance in the contemporary world. Doctoral Thesis, Temple University Libraries, 2008.; Krampe Florian. Building Sustainable Peace: Understanding the Linkages between Social, Political, and Ecological Processes in Post-War Countries. Department of Peace and Conflict Research, Uppsala University, August 2016.; Barbara Magalhaes Teixeira. The Nature of Peace and the Continuum of Violence in Environmental Conflicts. Doctoral Thesis. Lund, 2024; Galtung J. Violence, Peace, and Peace Research // Journal of Peace Research. – 1969. – Vol. 6, No. 3. – P. 167–191.; Rawls J. Political Liberalism. – New York: Columbia University Press, 1993.; Habermas J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge: Polity Press, 1996/1997.; Honneth A. The Struggle for Recognition: The Moral Grammar of Social Conflicts. – Cambridge: Polity Press, 1995.; Sen A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999.

[3] Лисицына А.А. Пацифизм как философская доктрина: генетический и нормативно-теоретический аспекты. диссер., кандидат наук. –Ростов-на-Дону: «Донской государственный технический университет», 2024. –198 с.; Докучаев А.В. Война как социокультурный феномен. диссер., кандидат культурол. наук. –Москва, 2000. 175 с.; Ни В.А. Идея мира в европейской политической мысли Нового времени: Генезис и эволюция. диссер., кандидат политических наук. –Москва, 2002. –134 с.; Сутягина Л.Э. Проблема войны и мира в русской религиозно-философской и богословской мысли рубежа XIX - XX столетий. диссер., кандидат философских наук. –Санкт-Петербург, 2007. –213 с.; Резник С.В. Идеологемы и концепты войны и мира в исламе. диссер., кандидат философских наук. –Белгород, 2004. –176 с.; Мартыненко Е.В. Мир как состояние общества. диссер., доктор политических наук. –Москва, 2003. –354 с.; Ксенофонтов В.В. Соотношение политики и войны: Эволюция взглядов. диссер., кандидат философских наук. –Москва, 2000. –176 с.

[4] Бўтаев У.Х. Ўзбекистонда демократик жамият ривожида тинчлик ва барқарорликнинг ўрни. Номзодлик диссер., -Тошкент, 2018. –174 б.; Шарипов А.З. Ижтимоий ҳамкорлик тўғрисидаги замонавий қарашларнинг тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлашдаги ўрни. –Тошкент, 2011. –140 б.; Абдушукуров А.Г. Ислом таълимотида уруш, тинчликҳақидаги ғоялар ва уларнинг Ўзбекистон тараққиётига таъсири (фалсафий таҳлил). дис.... фалсафа фан. номзоди. –Тошкент, 2003. –164 б.; Сирожов О.О. Марказий Осиёдаги минтақавий ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари. Сиёсий фан. д-ри дис. –Тошкент, 2018. –220 б.; Матибаев Т.Б. Ўзбекистонда давлат ва жамият ҳаётининг демократлашуви жараёнида ижтимоий ҳамкорлик тизимини

yo‘nalishlarida tinchlik va barqarorlik masalasini siyosiy, falsafiy, diniy, ijtimoiy va mintaqaviy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Ularda asosiy umumiy g‘oya – barqarorlik va tinchlik demokratik taraqqiyot, ijtimoiy hamjihatlik va milliy xavfsizlikning asosiy omili ekanligi namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy sheriklik va jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalari turli jihatlardan o‘rganilgan. I.A.Abdumalikovning “O‘zbekiston yoshlarida tinchlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqotida esa tinchlik madaniyatining mazmun-mohiyati, uning yoshlar ijtimoiy ongi va dunyoqarashida namoyon bo‘lish xususiyatlari, tinchlikparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy-ma’naviy omillari tadqiq etilgan[5].

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda erishilgan ilmiy-nazariy xulosalar va natijalar ilmiy-metodologik ahamiyat kasb etadi. Aksariyat tadqiqotlar asosan siyosiy nuqtai nazardan yoritilgan va ularda tinchlik muammosi, asosan, demokratik jamiyat va barqarorlik hamda yoshlar tinchlik madaniyati doirasida tadqiq etilgan. Tinchlik va hamkorlikning o‘zaro dialektik aloqadorligini ijtimoiy transformatsiyalar kontekstida o‘rganish, ularning tarixiy-falsafiy genezisi va evolyutsiyasini retrospektiv jihatdan tizimlashtirish, G‘arb va Sharq jamiyatlarida shakllangan konseptual modellarni qiyoslash hamda Yangi O‘zbekiston jamiyati transformatsiyasida tinchlik va hamkorlikni ta’minlash alohida tadqiqot predmeti bo‘lmagan. Shu jihatdan, mazkur dissertatsiyada tinchlik va hamkorlikning o‘zaro bog‘liqligi doirasida retrospektiv va komparativ metodologiya asosida tadqiq etish, tinchlik falsafasining ijtimoiy mohiyati, ma’naviy va tarixiy asoslari va uning ijtimoiy ongda aks etishi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026-yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O‘zbekiston sharoitida tinchlik va hamkorlikni ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tinchlik va hamkorlik tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini, ularning o‘zaro aloqadorligi hamda jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi funksiyalarini aniqlash;

ривожлантириш омиллари. Социология фан. докт... дис. –Тошкент, 2017. –291 б.; Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШҲТ)нинг аҳамияти. дис. ...сиёсий фан. номзоди. –Toshkent, 2007. –203 б.; Xajiyeva M.S. Inson falsafasi. Monografiya. - Urganch: “UrDU noshirlik bo‘limi”, 2018. -100 b.; Safarova N. O. Terror. Violence. Destructive //Вопросы гуманитарных наук. – 2010. – №. 1. – С. 251-253.; Choriyev S. A. Social security: Its purpose, history, and future //American Journal of Education and Learning. – 2025. – Vol. 3, Issue 8. – P. 271-277.; Turdiyev B.S. Jahon mamlakatlari siyosiy landshafti: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari. Monografiya. – Toshkent: “Afzalzoda books” nashriyoti, 2026. – 104 b

[5] Абдумаликов И.А.. “Ўзбекистон ёшларида тинчлик маданиятини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари”, 09.00.04 – Ижтимоий фалсафа, PhD диссертация автореферати. – Андижон: Андижон давлат университети, 2023.

tinchlik va hamkorlik g‘oyalarining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini retrospektiv tahlil qilish;

XX asrning ikkinchi yarmidan XXI asr boshlarigacha G‘arb va Sharq jamiyatlarida tinchlik va hamkorlik konsepsiyalarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish;

G‘arb va Sharq jamiyatlarida shakllangan tinchlik va hamkorlik modellarining umumiy hamda o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy tahlil qilish;

Yangi O‘zbekiston jamiyati transformatsiyasida tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy hamkorlikning ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini asoslash, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdagi imkoniyatlarini ochib berish;

tinchlik va hamkorlikni ta’minlashning istiqbollari va uni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini jamiyatda tinchlik va hamkorlikni ta’minlashga doir ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti tinchlik va hamkorlik tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmuni, tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlari, zamonaviy jamiyatda shakllangan modellarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tinchlik va hamkorlik yaxlit holda jamiyatning uzviy rivojlanishini, ijtimoiy adolat va siyosiy barqarorlikni va global integratsiyani kuchaytirishi hamda o‘zaro manfaatlarning uyg‘unligiga tayanadigan, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan, ijobiy o‘zgarishlarga zamin hozirlaydigan muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy holatlarning yaxlit tizimi ekanligi asoslangan;

tinchlik g‘oyasining “himoyalanish – kelishuv – murosa – konsensus – integratsiya – barqaror hamkorlik” kabi tarixiy bosqichlariga xos axloqiy (fazilat, o‘zini tarbiyalash), huquqiy (adolat, qonun ustuvorligi), geosiyosiy (adolatli boshqaruv va mojaroning oldini olish), ma’rifiy (ta’lim, dialog, bag‘rikenglik), iqtisodiy (teng taqsimot, tabiat bilan uyg‘unlik) jihatlarining zamonaviy global xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash mexanizmi sifatidagi falsafiy ahamiyati ochib berilgan;

ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida shakllangan tinchlik va hamkorlik modellarining “muvozanat – kompromiss – konsensus – integratsiya – barqaror hamkorlik” va “ozodlik – suverenitet – birdamlik – muloqot – hamkorlik – barqaror taraqqiyot” kabi qiyosiy-retrospektiv xususiyatlari asosida Sharq va G‘arb tajribasidagi umumiy hamda differensial jihatlari aniqlashtirilgan;

Yangi O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy-siyosiy hamjihatlik g‘oyalarining ustuvor bo‘lishida murosa (kompromiss) va madora (konsensus) tamoyillarining o‘rnatilishi hamda tinchlik va hamkorlikni ta’minlash mexanizmlarining samaradorligi ishonch, adolat, bag‘rikenglik, fuqarolik ishtiroki, muloqot sifati, manfaatlar muvozanati, ijtimoiy sheriklik va hamjihatlik indikatorlari orqali

baholanishi, tinchlik va hamkorlikning integratsiya va bunyodkorlik salohiyatini kuchaytirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tinchlik va hamkorlikni ta'minlashning institutsional mexanizmi davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla va jamoatchilik tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirishga; ma'naviy mexanizm tinchlikparvarlik, bag'rikenglik, hamjihatlik qadriyatlarini mustahkamlashga; kommunikativ mexanizm ochiq muloqot va manfaatlar almashinuvini ta'minlashga xizmat qilishi asoslab berilgan;

jamiyatdagi tinchlik va hamkorlikning sifat darajasini aniqlovchi ishonch, ijtimoiy adolatdan qoniqish, fuqarolik ishtiroki, bag'rikenglik, muloqot sifati, manfaatlar muvozanati, ijtimoiy sheriklik va hamjihatlik kabi indikatorlar ijtimoiy muhitdagi zaif nuqtalarni aniqlash va ularning konfliktga aylanishidan oldin tegishli choralarni belgilash imkoniyati yaratishi, tinchlikni "mavjud holat" sifatida emas, balki muntazam kuzatib boriladigan va boshqariladigan ijtimoiy jarayon sifatida baholash imkonini berishi aniqlashtirilgan;

jamiyat xavfsizligi, chegaralar daxlsizligi, tinchlik va barqarorlik, erkin va ozod hayotni ta'minlash, samarali tashqi siyosatni amalga oshirishda oqibatlarga qarshi kurashish, xavf-xatarlarga qarshi jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish mexanizmlari yoshlarning konstruktiv muloqot, nizolarni murosa asosida hal qilish, ijtimoiy mas'uliyat, bag'rikenglik va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan tinchlik va hamkorlik tushunchasini barqaror taraqqiyotiga, fuqarolar, millatlar va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlashdagi rolini tadqiq etishda, dialektik bog'liqlikni ochib berishda, shuningdek, G'arb va Sharq jamiyatlarida shakllangan tinchlik va hamkorlik modellarining umumiy hamda o'ziga xos jihatlarini va hamkorlikning tarixiy transformatsiyasi va zamonaviy funksional xususiyatlarini tushuntirishda hamda tinchlik, hamkorlik, ijtimoiy integratsiya, konsensus, ijtimoiy ishonch va barqarorlik kategoriyalarining nazariy mazmunini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan konseptual xulosalar va tavsiyalardan Yangi O'zbekiston jamiyatida tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamjihatlik va fuqarolik hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy dasturlarni takomillashtirishda, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, mahalla va

jamoatchilik tuzilmalarida konstruktiv muloqot mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlar orasida tinchlik madaniyati, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas’uliyat va hamjihatlik qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida “Falsafa”, “Ma’naviyatshunoslik” kabi fanlarning tinchlik, ijtimoiy barqarorlik, konsensus, bag‘rikenglik va hamkorlikka oid mavzularini mazmunan boyitish, maxsus kurslar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy transformatsiyalar jarayonida tinchlik va hamkorlikni ta’minlashning falsafiy-retrospektiv tahlilini tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

tinchlik va hamkorlik yaxlit holda jamiyatning uzviy rivojlanishini, ijtimoiy adolat va siyosiy barqarorlikni va global integratsiyani kuchaytirishi hamda o‘zaro manfaatlarning uyg‘unligiga tayanadigan, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan, ijobiy o‘zgarishlarga zamin hozirlaydigan muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy holatlarning yaxlit tizimi ekanligiga doir ilmiy yangiliklar va natijalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining IV yo‘nalishida belgilangan “Aholi o‘rtasida vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirish, yangilanish jarayonlari va tub islohotlarga daxldorlik hissini uyg‘otish, tarixiy va muhim sanalarda ularni birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar” 23-bandi “Yoshlarda yuksak vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish, harbiylar, vatan himoyachilariga hurmat uyg‘otish, Vatanni himoya qilishni eng sharafli burch ekanligini keng targ‘ib qilish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 12-noyabrdagi 10/746-son ma’lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy transformatsiyalar jarayonida tinchlik va hamkorlikni ta’minlash, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash, jamiyatda do‘stlik muhitini shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan;

tinchlik g‘oyasining “himoyalanish – kelishuv – murosa – konsensus – integratsiya – barqaror hamkorlik” kabi tarixiy bosqichlariga xos axloqiy (fazilat, o‘zini tarbiyalash), huquqiy (adolat, qonun ustuvorligi), geosiyosiy (adolatli boshqaruv va mojaroning oldini olish), ma’rifiy (ta’lim, dialog, bag‘rikenglik), iqtisodiy (teng taqsimot, tabiat bilan uyg‘unlik) jihatlarining zamonaviy global xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash mexanizmi sifatidagi falsafiy ahamiyatiga oid xulosalar va takliflardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-raqamli “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transdistsiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-noyabrdagi 04/11-26465-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda tinchliksevar siyosatni davom ettirish, xalqaro hamjamiyat va chet eldagi hamyurtlar bilan do‘stlikni mustahkamlash

tinchlik va barqarorlikni ta’minlash tizimini rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy hamkorlikni kengaytirish va “xalq diplomatiyasi” orqali vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha takliflar tayyorlashga xizmat qilgan;

ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida shakllangan tinchlik va hamkorlik modellarining “muvozanat – kompromiss – konsensus – integratsiya – barqaror hamkorlik” va “ozodlik – suverenitet – birdamlik – muloqot – hamkorlik – barqaror taraqqiyot” kabi qiyosiy-retrospektiv xususiyatlari asosida Sharq va G‘arb tajribasidagi umumiy hamda differensial jihatlariga oid ilmiy yangiliklardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan efirga “Davlat ramzlari”, “Konstitutsiya qomusimiz” teledasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokanalining davlat muassasasining 2025-yil 11-noyabrdagi 01-09-249-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv va radio eshittirishlarda hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta’minlashga qaratilgan milliy kontent materiallarini tayyorlash, ularni ommalashtirishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy-siyosiy hamjihatlik g‘oyalarining ustuvor bo‘lishida murosa (kompromiss) va madora (konsensus) tamoyillarining o‘rnatilishi hamda tinchlik va hamkorlikni ta’minlash mexanizmlarining samaradorligi ishonch, adolat, bag‘rikenglik, fuqarolik ishtiroki, muloqot sifati, manfaatlar muvozanati, ijtimoiy sheriklik va hamjihatlik indikatorlari orqali baholanishi, tinchlik va hamkorlikning integratsiya va bunyodkorlik salohiyatini kuchaytirishdagi imkoniyatlariga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-2025-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2026-yil 28-yanvardagi 2-13-21-525-son ma’lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar kuchayib borayotgan bugungi sharoitda, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 155 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining

ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Tinchlik va hamkorlik muammolarini tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan va unda tinchlik va hamkorlik tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyati, o‘zaro aloqadorlik jihatlari tahlil etilib, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri hamda tinchlik va hamkorlik g‘oyalarining shakllanish genezisi va rivojlanish bosqichlari tadqiq etilgan.

Tinchlik bu insonlar va xalqlar o‘rtasidagi hamjihatlik va o‘zaro tushunish jarayoni bo‘lib, ichki va tashqi xatarlardan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish holatidir. Falsafiy mazmuniga ko‘ra, tinchlik bu borliq, tabiat va olamning yaxlitligini aks ettiruvchi falsafiy kategoriya sifatida moddiy va ma’naviy hayot dialektikasi sababli jamiyatda yuzaga kelgan turg‘un, ijobiy o‘zgarishlarga zamin hozirlaydigan qat’iy, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy holatlarning yaxlit tizimidir.

Tadqiqotda hamkorlik turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi sifatida ta’riflanadi[6]. Inson esa, borliqning bir qismi va uning aks-sadosi bo‘lganligi sababli, bu qonunning ta’siriga ham bo‘ysunadi. Hamkorlik borliqning asosi sifatida evolyutsiyaning zaruriy sharti hisoblanadi. Kembrij lug‘atida transformatsiya tushunchasiga biror narsaning to‘liq o‘zgarishi yoki bu o‘zgarishni yanada yaxshilashga qaratilgan jarayon ta’rifi keltirilgan[7]. Ijtimoiy o‘zgarish – bu jamiyatning ijtimoiy tuzumidagi o‘zgarish bo‘lib, u ijtimoiy institutlar, ijtimoiy xatti-harakatlar yoki munosabatlardagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Dissertatsiyada tinchlik va hamkorlik haqidagi diniy, ilmiy, falsafiy qarashlarga murojaat etilib, umuminsoniy qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Xususan, “Avesto”da dunyoning tinch va obodligi, yaxshi va ezguligi xususida “Dunyoni obod etmoq uni yaxshilik bilan asramoq va yorug‘lik sari eltmoq kerak!”[8]ligi ta’kidlangan. Konfutsiy falsafiy qarashlarida urush va tinchlik masalasi insonning axloqiy jihatdan kamol topishi umumiy tinchlikka erishishning asosiy poydevori sifatida qaralgan. Islom dinida esa, tinchlik, hamjihatlik va hamkorlikni o‘zining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraladi[9].

Sharq birinchi uyg‘onish davri mutafakkiri Ibn Sino ijtimoiy-falsafiy qarashlarida insonni tanho holda baxt-saodatga erisha olmasligi, o‘zining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini boshqalar bilan o‘zaro hamkorlikda ro‘yobga chiqarish mumkinligi asoslangan. Beruniy xalqlar hamjihatligini jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi deb bilsa, Forobiy esa har qanday mojarolar va urushlarni

---

[6] Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. –Тошкент: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2023. –Б.705.

[7] Transformation //https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/transformation

[8] Avesto. Mas’ul muharrir: Jo‘rayev N., Xalilov N., Bo‘ronov M. –Toshkent: “Ta’limnashriyoti”, 2021. –B.225.

[9] Қурьони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржимон: Абдулазиз Мансур. –Тошкент: “O‘qituvchi” нашриёт-матбаа ижодийуйи, 2020. –Б.32.

muvozanatsizlik deb hisoblab, u avvalo, nizolarni boshlab berganlarning o‘zini barbod qilishini ta’kidlagan.

Dissertatsiyada Amir Temur murakkab siyosiy masalalarni urush orqali emas, balki sulh yo‘li bilan hal etishga, ulkan hududlarni birlashtirishga, markazlashgan davlat tuzishga harakat qilgan buyuk diplomat bo‘lganligi qayd etilgan. A. Navoiyning xalq ravnaqi, yurt osoyishtaligiga erishish g‘oyalari o‘rganilib, “yurtda tinchlik bor ekan, mamlakat xalqi ahillikda yashaydi, ilm-u hunar ham rivoj topadi”[10], – deb qayd etiladi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan modernistik oqim sifatida xalqni jaholatdan ma’rifat sari yetaklaganligi keltirilgan. Behbudiy tinchliksevar qarashlarida ijtimoiy birdamlik, xalq ongining uyg‘onishi, millatlararo totuvlik va madaniyatlararo hamkorlik rag‘batlantirilgan bo‘lsa, Avloniy erkinlik va ozodlikni eng yuksak qadriyat deb bilib, unga yetaklaydigan asosiy yo‘l sifatida “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”[11], deb ta’kidlaydi. Munavvarqori jadidlarning asosiy shiorini “Ozodlik, Tenglik va Adolat”[12] so‘zlari orqali nafaqat siyosiy erkinlikni, balki ijtimoiy hamjihatlik, inson qadrini tan olish va barqaror tinchlikka erishish g‘oyalarini ifodalaydi. Fitrat ijtimoiy-falsafiy qarashlarida yurtparvarlik, yoshlarning vatan oldidagi burch va vazifasiga mas’ul ekanligini “Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi, og‘zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizg‘a tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to‘zimli turdik, sabr etdik”[13], degan fikri orqali bayon etadi.

Tadqiqotchi fikricha, antik davr tafakkurida tinchlik va hamkorlik g‘oyalari insoniyat orzu qilgan ideal jamiyat timsolida gavdalantirilgan. Platon uchun eng yaxshi siyosiy tuzum bu turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida hamkorlik muhiti mavjud bo‘lgan, har bir guruh umumiy farovonlikdan foyda olib, unga o‘z hissasini qo‘shadigan va shu orqali ijtimoiy tinchlikni ta’minlaydigan tuzumni nazarda tutgan. Aristotel fazilatli hayotni urush holatidagi hayotda emas, balki tinchlik holatida qurish mumkin deb hisoblagan. Geraklit boshqa faylasuflardan farqli ravishda, tinchlikni barqaror holat emas, balki qarama-qarshiliklar orasidagi dinamik muvozanat deb biladi. Demokrit “barcha kuch-g‘ayrat bilan fuqarolar o‘rtasida tinchlikni, hamfikrlikni, birlikni, birodarlikni va o‘zaro himoyani ta’minlash kerak”[14], deb ta’kidlagan.

R.Erazm urushlarni hech qanday shartlarsiz qoralab, “urush mavjudlikning o‘ziga zid, u barcha kulfat va yovuzliklarning asosiy ildizidir. Urush tufayli gullab-yashnagan barcha narsa yemiriladi, unda muqaddas deb atashga loyiq hech narsa yo‘q”[15], deb yozgan. N.Makiavelli tinchlik insoniyat jamiyatining eng maqbul holati

---

[10] Alisher Navoiy. Xamsa. (Qisqartirib nashrga tayyorlovchi A.Hojiahmedov; mas’ul muharrir V.Rahmonov). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. –B.333.

[11] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. –B.9. (104 b)

[12] Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). Нашрга тайёрловчи: С.Холбоев. –Тошкент: “Шарқ”, 2001. –Б.51.

[13] Абдурауф Фитрат. Мухторият. –Тошкент: “Маънавият”, 2022. –Б.69.

[14] Маковельский А.О. Древнегреческие атомисты. –Баку: Изд. АН Азерб. 1946. -С. 131.

[15] Эразм Роттердамский. Жалоба мира // Трактаты о вечном мире. –Москва: «Соцэкгиз», 1963. -С.40.

emasligi, urushni tinchlik kabi tabiiy jarayon deb hisoblaydi. XVII asrda nazariyotchilar o‘zlarining tinchlik formulasini ilgari surib, unda hokimiyat egalari qudratini tinch va osoyishta yo‘lga yo‘naltirish zaruratini asoslab bergan edi. G.Grotsiyning “Urush va tinchlik huquqi to‘g‘risida” asarida urush bu tinchlik holatining buzilishidir, ya’ni qonunchilik, boshqaruv va sud tizimi orqali xavfsizlik, qonun ustuvorligi va adolatni ta’minlovchi barqaror huquqiy tartibning izdan chiqishidir[16]. Jan-Jak Russo tinchlikni talqin etishda uning ikki asosiy ichki (xalq bilan hukumat o‘rtasidagi munosabatlar) va tashqi (turli davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar) sohasiga e’tibor qaratadi. T.Gobbsning urush inson tabiatiga mos kelishini, biroq u inson uchun halokatli ekanini ta’kidlab, ularning asosiy sabablarini raqobat, ishonchsizlik va shuhratga chanqoqlik deb biladi[17]. I.Kant “Abadiy tinchlik sari” nomli traktatida Yevropadagi qurolli to‘qnashuvlar ko‘plab qurbonlarga va moddiy boyliklarning vayron bo‘lishiga olib kelishini alohida ta’kidlagan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, tinchlik va hamkorlik tushunchalari jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va axloqiy uyg‘unlikni ta’minlovchi holat hisoblanadi. Tinchlikning zamonaviy nazariyalarida u ijobiy mazmunga ega bo‘lib, tinchlikni zo‘ravonlik yo‘qligidan ko‘ra, faol hamkorlik, o‘zaro anglashuv va xalqaro hamdo‘stlik asosida talqin etadi. Bu esa uni ijtimoiy-hududiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim faktor sifatida belgilaydi. Tinchlik siyosiy (muloqot orqali kelishuv), iqtisodiy (o‘zaro manfaatli hamkorlik), ilmiy-texnik (innovatsion taraqqiyotda sheriklik), madaniy (xalqaro anglashuv) omillar uyg‘unligida shakllanadi. Sharq va G‘arb falsafiy merosida tinchlik va hamkorlik o‘zaro bog‘liqlik, ichki muvofiqlik va barqarorlikning zaruriy sharti sifatida talqin qilingan. Ular jamiyatning ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotini ta’minlovchi universal qonuniyatlar sifatida qaralgan. Islom tafakkurida tinchlik – ijtimoiy adolatning, G‘arb falsafasida esa fuqarolik erkinliklarining asosiy mezoni sifatida qaralgan. Sharq mutafakkirlarining tinchlik haqidagi qarashlari ma’naviy-axloqiy yuksaklikka asoslangan. G‘arb falsafasida esa, tinchlik ijtimoiy adolat va huquqiy tartibning asosi sifatida talqin etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zamonaviy jamiyatlarda tinchlik va hamkorlikni ta’minlash modellarining retrospektiv tahlili”** deb nomlanib, unda rivojlangan G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida murosa va integratsiyaga asoslangan tinchlik yondashuvlari, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining madaniyatlararo muloqot orqali uyg‘unlikka erishishining ijtimoiy-falsafiy tajribasi tahlil etilgan.

XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan so‘nggi demokratik jarayonlar to‘lqini mintaqa mamlakatlarini yangi bir ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy voqelik bilan ro‘baro‘ qildi. Ijtimoiy jarayonlarning XXI asrda jadallashuvi turli sabablar bilan izohlanadi. A.Vendt kompromissning quyidagi turlarini aniqlaydi: prinsipal / pragmatik kompromiss, ratsional kompromiss, adolatli kompromiss va korrupsion kompromiss[18]. Qolganlari

[16] Гуго Гроций. О праве войны и мира. –Москва: «Ладомир», 1994. –С. 547.
[17] Гоббс Т. Левиафан //Гоббс Т. Избранные произведения в 2-х тт. –Москва: «Мысль», 1991. Т. 2. –С. 94.
[18] Quantum Mind and Social Science Unifying Physical and Social Ontology, Cambridge: Cambridge University Press, 2015. –P. 322.

mamlakatda jamiyatning konsolidatsiyasiga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalaridagi erkinlik va shaffoflik murosa va madora tamoyillarini targ‘ib qilishga xizmat qilishi qayd etiladi. Umuman olganda migrantlarga ochiq mamlakatda murosa va madora tamoyillari mustahkam bo‘ladi. Fransiyaning murosa va madora tamoyillaridagi yangi tamoyili sifatida Yangi Kaledoniyaga sheriklikdagi suverenitetni taqdim qilishi mamlakatda hamkorlik va tinchlik g‘oyalarining ahamiyatga ega bo‘lib borayotganligining namunasidir[19]. Tahlilchilar buni Fransiya tarixida mustamlakachilikka ilk marta 2026-yil fevralda tinchlik yo‘li bilan chek qo‘yishdagi ilk qadam deb hisoblab, kompromiss g‘oyasining ustun chiqishi deb ta’kidlashadi.

Dissertatsiyada ijtimoiy transformatsiyalar jarayonida tinchlik va hamkorlik yo‘lida quyidagi tamoyillar ustun bo‘lib borayotganligi asoslab berilgan:

- *kompromiss siyosati.* Bu yondashuv ijtimoiy keskinliklarning oldini olish va har xil guruhlar o‘rtasida balansni saqlashga yordam beradi. Siyosiy jarayonlarda turli partiyalar va ijtimoiy qatlamlar manfaatlari hisobga olinib, barqarorlik va ijtimoiy tinchlikni ta’minlashga harakat qilinadi. Bu jarayonda demokratik institutlar va ommaviy muloqot muhim vosita hisoblanadi.

- *konsensus va madaniy xilma-xillikka hurmat.* Har bir fuqaroning e’tiqod erkinligi ta’minlangan bo‘lib, bu jamiyatda turli diniy guruhlarning tinch-totuv yashashiga asos yaratadi. Fuqarolik jamiyati inson huquqlarining hurmat qilinishi va immigratsiya siyosatining adolatli olib borilishi orqali ijtimoiy totuvlikni ta’minlamoqda.

- *integratsiya yondashuvi.* Integratsiya yondashuvining mintaqaviy va xalqaro tinchlikni ta’minlashdagi o‘rnini namoyon etgan. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqining mavjudligi aynan shu tinchlikparvarlik siyosatining mahsulidir.

Demokratiya, inson huquqlari va turli guruhlarni himoya qilish bahonasida rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki ishlariga aralashuv, iqtisodiy sanksiyalar qo‘llash, harbiy kuch ishlatish, rangli inqiloblar uyushtirish usullari zamirida neoimperializm yotadi. Murosaga asoslangan tinchlik yondashuvlari mamlakatni barqarorlikka olib kelishi isbotlangan[20].

Tadqiqotda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining madaniyatlararo muloqot orqali taraqqiyotga erishish tajribasi ham ko‘rilib chiqilib, bunda Hindistonda tinchlikni saqlab qolishdagi muammolar: agrar jamiyatdan raqamli jamiyatga o‘tish, kastalar tizimini yengish, affirmativ diskriminatsiya muammolari bayon etiladi. Bangladesh misolida murosa va madora jarayonida yo‘l qo‘yilgan nuqsonlar ijtimoiy vaziyatni keskinlashtirib, oqibatda siyosiy rejimning o‘zgarishiga olib kelganligi ta’kidlanadi. Murosa va madora tamoyili sifatida Xitoy 2013-yildan boshlab *“Bir kamar, bir yo‘l”* loyihasini targ‘ib qilib kelmoqda. Hamkorlik va barqarorlik orqali ijtimoiy tenglik, iqtisodiy barqarorlik, ayollar huquqlarining ta’minlanishi va siyosiy erkinlik kabi omillarga imkoniyatlar yaratiladi.

---

[19] Géraldine Woessner Nouvelle-Calédonie: un pari «historique» à l’épreuve du terrain //https://www.lepoint.fr/societe/nouvelle-caledonie-un-pari-historique-a-l-epreuve-du-terrain-15-07-2025-2594385_23.php#11. Publié le 15/07/2025 à 06h30

[20] Malmö stad //https://malmo.se/Facts-and-statistics/Population.html

Dissertatsiyada murosa va madora tamoyilini turfa xillik, tenglik va inklyuzivlik (**"***Diversity, Equity and Inclusion"* -DEI) jarayonisiz tasavvur qilib bo‘lmasligi ta’kidlangan. Afrikaning Sahroi Kabirdan janubdagi qismi, madaniyatlar va dunyoqarashlar to‘qnashgan hudud hisoblanadi. Mahalliy tillarning yo‘qolib borishi, gender tengsizligi, iqlim o‘zgarishi, raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi tengsizlik, xotin-qizlarning ta’lim imkoniyatlaridan foydalana olmasligi katta xavf uyg‘otadi. Tadqiqotchi san’at, kino mahsulotlari va adabiyotni mamlakatlar o‘rtasida murosa va madorani ta’minlovchi vositalar deb hisoblaydi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, murosa va kompromiss madaniyati institutsional shakllanish, tarixiy tajriba va jamiyat a’zolarining o‘zaro ma’naviy kelishuviga bog‘liqdir. Fransiyaning "laiklik" tamoyili, Germaniyaning urushdan keyingi patsifistik tafakkuri, Shvetsiyaning ombudsmanlik institutini yaratgan konsensus an’anasi buning yaqqol dalilidir. Bu tajribalarning umumiyligi shundaki, murosa kuchsizlik yoki taslim bo‘lish emas, balki ziddiyatli manfaatlarni muzokara yo‘li bilan hal qilish madaniyatidir. So‘z erkinligi va diniy-madaniy tuyg‘ularni hurmat qilish murosa falsafasining eng nozik sinovlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Erkinlik tushunchasi mutlaq va cheksiz shaklda talqin etilganda, u boshqa bir guruhning e’tiqodiy qadriyatlariga tahdidga aylanishi mumkin. Murosa madaniyati zaiflashgan joyda, radikal qarashlar tez ildiz otadi. Murosa universal tamoyil bo‘lsa-da, uning amaliy shakllari har bir jamiyatning tarixiy va madaniy zaminiga qarab o‘zgaradi. Murosa va konsensus hech qachon zaiflik alomati emas, aksincha, ular jamiyatning inqirozli vaziyatlardan mustahkam chiqishga qodirligini ifodalovchi ma’naviy salohiyatdir. Bu tamoyil har bir mamlakatda o‘ziga xos tarixiy shaklda namoyon bo‘ladi, biroq uning mohiyati o‘zgarmas qoladi: turfa manfaat va qarashlarni bartaraf etish emas, balki ularni muvozanatga keltirish zarurati. Demak, tinchlik falsafasi davlat chegaralaridan yuqori turadigan, biroq har bir davlatning real amaliyoti orqali sinovdan o‘tadigan universal qadriyat ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Yangi O‘zbekiston jamiyati transformatsiyasida tinchlik va hamkorlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlari"** deb nomlanib, unda "Uchinchi Renessans davri", Yangi O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik hamda ma’naviy yangilanish g‘oyalari falsafiy, siyosiy va madaniy jihatlardan tadqiq etilgan. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda tinchlikni ta’minlashning falsafiy-ma’naviy asoslari hamda tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy hamkorlikni ta’minlash mexanizmlari va istiqbollari tahlil etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari mintaqaviy hamkorlik va xalqaro diplomatiya orqali Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. 2018-yilda BMT tomonidan qabul qilingan "Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash"[21] rezolyutsiyasi, chegara va xavfsizlik masalalarini hal qilish bo‘yicha hamkorlik, mintaqalararo transport va logistika yo‘llarini rivojlantirish, madaniyatlararo dialog va xalqlararo hurmat prinsiplari

[21] BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan rezolyutsiyani qabul qildi //https://xs.uz/uz/post /bmt-uzbekistan-rezolyutsiya

